



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3672
2025 - yil 26 - Avgust

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod)
pasport o'rnatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-apreldagi PF-66-son "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat nazoratini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport o'rnatish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Savdo sanoat palatasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq 2025-yil 1-sentabrdan e'tiboran kuchga kiradi.

Вазир
20-Avgust 2025-yil
01/2-40 son



XIDOYATOV SHERZOD
SAIDJANOVICH

Kelishildi:

Rais
19-Avgust 2025-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Vakil o'rinbosari
19-Avgust 2025-yil



URUNOV JAMSHID
OLIMOVICH

Birinchi o'rinbosari
19-Avgust 2025-yil



JABBOROV JASUR
BOZOROVICH

O'zbekiston Respublikasi qurilish
va uy-joy kommunal xo'jaligi
vazirining 2025-yil 20-avgustdagi
01/2-40-son buyrug'iga
ILOVA

**Qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport o'rnatish
tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasportni o'rnatish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom talablari Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalarida (bundan buyon matnda hududiy inspeksiyalar deb yuritiladi) ro'yxatdan o'tgan barcha qurilish obyektlariga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Mazkur Nizom talablari davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan obyektlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport – qurilayotgan obyekt tashqarisiga joylashtiriladigan va obyekt haqidagi ma'lumotlarni (obyekt nomi, ruxsatnoma raqami, qurilish muddati va boshqalar), mas'ul shaxslar bilan bog'lanish imkoniyatlarini hamda elektron pasportga havolani o'z ichiga oluvchi axborot majmui;

buyurtmachi – obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va buzishning amalga oshirilishini ta'minlovchi, shuningdek shu maqsadlarda loyiha-qidiruv, ekspertlik, qurilish-montaj va nazorat ishlarini bajarish uchun tegishli tashkilotlar bilan shartnomalar tuzuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**2-bob. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport tayyorlash, o'rnatish tartibi
hamda muddatlari**

4. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport qurilish obyekti hududiy inspeksiyalarda ro'yxatdan o'tgan kunda buyurtmachi tomonidan obyektning kirish qismiga yoki barcha uchun ko'rinadigan joyda majburiy tartibda o'rnatiladi.

5. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport buyurtmachi tomonidan mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda tayyorlanadi. Bunda, QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasportda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- obyektning nomi va manzili;
- buyurtmachi tashkilotning nomi;
- loyiha tashkiloti nomi;
- putratchi tashkilotning nomi;

buyurtmachining texnik nazorat bo'yicha mutaxassisi familiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari;

loyihachining mualliflik nazorati bo'yicha mutaxassisi familiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari;

puqratchining ichki nazorat bo'yicha mutaxassisi familiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari;

qurilish muddati (boshlangan sana va yakunlash sanasi);

obyektning umumiy ko'rinishlari;

obyektning qirqimi;

obyektning bosh rejasi;

obyektning bosh reja qaydnomasi;

QR-kod (matrik shtrixli kod) ("Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining "Qurilishda davlat nazorati" elektron platformasida aks etuvchi havola);

qurilish obyektini hududiy inspeksiyada ro'yxatdan o'tgan sanasi va raqami.

6. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport qurilish obyektini hududiy inspeksiyalarda ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab, obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar amalda bo'lishi zarur.

7. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport namlik va tashqi ta'sirlarga chidamli materialdan tayyorlangan bo'lishi, umumiy o'lchamlari 2400x1200 mm ni tashkil etishi hamda yer sathidan kamida 1 m balandlikda o'rnatilishi lozim.

8. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasportdagi ma'lumotlar davlat tilida bayon etilishi lozim.

9. QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport tashqi ta'sirlar natijasida yaroqsiz holga kelib, QR-kod orqali ma'lumotlarni o'qish yoki ko'rish imkoni bo'lmasa, u yangilanib, qayta tiklanishi lozim. Bunda, uni yangilash va qayta tiklash buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Qurilish obyektini hududiy inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazilgach, "Shaffof qurilish" axborot tizimida obyektga oid dastlabki ma'lumotlar joylashtirilgan sahifa uchun QR-kod (matrik shtrixli kod) avtomatik tarzda shakllantiriladi. Ushbu QR-kod (matrik shtrixli kod)ni mazkur Nizom ilovasiga muvofiq tarzda joylashtirish lozim.

11. QR-kod (matrik shtrixli kod)da quyidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi havola bo'lishi lozim:

obyektning nomi va manzili haqidagi ma'lumotlar;

buyurtmachining nomi;

loyihachining nomi;

puqratchining nomi;

obyekt qurilishining boshlanish va yakunlanish sanalari;

shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi raqami va sanasi;

qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyekt ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi ko'chirma raqami va sanasi;

shaharsozlik hujjatlarining ekspertiza xulosasi raqami va sanasi.

3-bob. Yakuniy qoida

12. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod) pasport
o'rnatish tartibi to'g'risidagi nizomga
ILOVA

Qurilish obyektlarida QR-kodli (matrik shtrixli kod)
PASPORT

OBJEKTNING MANZILI VA NOMI			
OBJEKTNING OLD TOMONIDAN UMUMIY KO'RINISHI	OBJEKTNING YON TOMONIDAN UMUMIY KO'RINISHI	OBJEKTNING QIRQIMI	
OBJEKTNING BOSH REJASI	BOSH REJA QAYDNOMASI	OBJEKT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR obyektning nomi va manzili; buyurtmachi tashkilotning nomi; loyiha tashkiloti nomi; pudratchi tashkilotning nomi; buyurtmachining texnik nazorat bo'yicha mutaxassisi famiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari;	QR-KOD (matrik shtrixli kod)

		loyihachining mualliflik nazorati bo'yicha mutaxassisi familiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari; pudratchining ichki nazorat bo'yicha mutaxassisi familiyasi, ismi, otasining ismi va xizmat telefon raqamlari; qurilish muddati (boshlangan sana va yakunlash sanasi); qurilish obyektni hududiy inspeksiyada ro'yxatdan o'tgan sanasi va raqami.	
--	--	---	--